

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida O‘zbekiston Respublikasi  
davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va  
uni o‘tkazish bo‘yicha**

**MA'LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-aprel “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish” to‘g‘risidagi PQ-120 sonli qarori qabul qilindi, qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan Nazorat rejasi ishlab chiqilib ijroga qaratildi. Vazirlar Mahkamasi topshirig‘iga asosan Nazorat rejasi Madaniyat Vazirligiga taqdim etildi (17.04.2026y. №02-2225-son xat)

Qarorda ta‘kidlab o‘tilganiday - Milliy istiqlolimizning davlatchiligimiz tarixi, hozirgi va kelajak hayotimiz uchun beqiyos ahamiyatini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35 yilligini Yangi O‘zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va Jahon maydonida nufuziga muvofiq yuksak darajada, munosib nishonlash - asosiy mavzusi doirasida ishlar rejalashtirilgan.

Vazirlik Mustaqillik bayrami arafasida bir qator tashkiliy ishlarni hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan.

Bular:

30 avgustdan - 2 sentyabr bayrami kunlari vazirlikda departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlaridan iborat 24 soatlik (tun-kun) navbatchilik tashkil etiladi. Joylardan ma‘lumotlar yig‘ilib, umumlashtirilib tegishli mas‘ul organlariga va vazirlik rahbariyatga yetkazib turiladi.

Vazirlik tizimidagi oliygohlarda joriy yil may oyida va talabalar yozgi dala amaliyoti paytida Geologiya fanlari universiteti, Navoyi Davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS”ning Olmaliq shahridagi filialida **“Mustaqillik soati” o‘quv soatlari** o‘tkazilishi ta‘minlanadi.

Joylarda **“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”** degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, madaniy-ma‘naviy targ‘ibot tadbirlarni ko‘tarinki ruh va yuqori darajada keng nishonlashni vazirlik o‘z olidga maqsad qilib olgan.

Avgust oyining 15-20 sanasidan keyin vazirlik va tizimdagi tashkilotlar binolarini Mustaqillik bayrami shukuhi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tarannum etuvchi targ‘ibot vositalari va milliy bezaklar bilan bezatiladi.

**“Inson qadri ulug‘langan yurt”** shiori ostida vazirlik tizimida bayram festivalini tashkil etish rejalashtirilgan. Bunda:

**“Ayol qadri ulug‘langan yurt”** shiori ostida vazirlikda

- eng faol ayol mutaxassis;
- eng eko-faol ayol xodim;
- eng yaxshi kitobxon ayol xodim;

- milliy liboslar tanlovi nominatsiyalari tashkil etiladi va g‘olib xodimlarimizga O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35 yilligini aks etuvchi esdalik sovg‘alar taqdim etiladi.

**31-avgust – Qatag‘on qurbonlari xotirasini yod etish kuni** munosabati bilan yozuvchilar, adiblar va olimlar ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari o‘tkaziladi.

Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan vazirlik hamda tizimdagi korxonalar yosh xodimlaridan tuzilgan jamoalar o‘rtasida **“Zakovat”** intellektual musobaqasi va **“Mustaqillik kubogi”** sport musobaqalari o‘tkaziladi (avgust oyida). Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan vazirlik tomonidan soha rivojiga qo‘shgan salmoqli hissasi uchun 35 nafar nomzod «Mehnat shuhrati» ordeni, «Do‘stlik» ordeni hamda «Shuhrat» medali kabi davlat mukofotlari bilan taqdirlanish uchun taqdim etilishi rejalashtirilmoqda.

1-sentyabr - O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35-yilligi munosabati bilan dam olish kunlari **“Yurtim tarixini o‘rganaman”** shiori ostida xodimlar ishtirokida yurtimiz bo‘ylab ichki turizmni yanada rivojlantirish maqsadida sayohatlar tashkil etiladi. Teatr, kino va sirk tomoshalariga chiptalar xarid qilinib, soha xodimlari va oilalari uchun madaniy hordiq chiqarish imkoni yaratiladi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylari va shu bilan birga, sohamizda xizmat ko‘rsatgan ustozlar, faxriylar, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, hamda ko‘makka muxtoj insonlarning holidan xabar olish, har tomonlama e‘zozlash hamda turar joylarini obodonlashtirish ishlari kabi turli xayriya tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirildi.

Shu bilan birga, davlatimiz mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha jarayonlar vazirlik ijtimoiy tarmoqlarida, OAV sahifalarida keng yoritib boriladi.

**Vazirning ma’naviy-ma’rifiy ishlar va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi**

**Z. Axmedova**